

**SHE'R TARJIMASI SAN'ATI: ALEKSANDR FAYNBERG
SO'ZLARI YANGI OHANGDA**

Turg'unboyeva Arofatxon ¹

¹ O'zbekiston Davlat Jahon tillari Universitetining xorijiy til va adabiyot 1-fakultetining
1-kurs talabasi e-mail: arofatxon2006@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:13.03.2025

Revised: 14.03.2025

Accepted:15.03.2025

KALIT SO'ZLAR:

Aleksandr Faynberg,
o'zbek she'riyat, ijodiy
uslub, Vatanga
muhabbat, yoshlik
xotiralari, tarjima,
adabiy meros,
zamonaviy she'riyat.

Aleksandr Faynberg – o'zbek va rus she'riyatida o'ziga xos uslub va betakror ijodiy yo'nalishga ega iste'dodli shoir. Shoirning ijodi o'zbek adabiyotining boy an'alarini zamonaviy ruh bilan uyg'unlashtirgan holda, Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat va yoshlik xotiralari bilan sug'orilgan. Faynbergning she'rlari nafaqat adabiyot ixlosmandlari orasida mashhur, balki musiqa, kino va tarjima sohalarida ham keng foydalaniladi. She'rlarining ohangdorligi va badiiy teranligi uning ko'plab tarjimalar orqali ham sezishimiz mumkin.

KIRISH. “Adabiyot – xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”,- deb O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tgan. Aleksandr Faynberg – o'zbek she'riyatida o'ziga xos uslubga ega iste'dodli shoir. Aleksandr Faynbergning she'riy to'plamlari qo'lma-qo'l uzatiladi, matnlari asosida qo'shiqlar kuylanadi, ssenariylari asosida filmlar namoyish etiladi, asarlarining o'zbek tiliga yangi tarjimalari hozirgi kunda ham amalga oshirilmoqda. Uning hayoti va ijodi bilan bog'liq

muhim sanalar har yili nishonlanadi, shoir merosiga bag'ishlangan she'riyat kechalari o'tkazilib kelinmoqda. Aleksandr Faynbergning mumtoz she'riyatning eng yaxshi an'analari va O'zbekiston zaminiga mehr-muhabbat tuyg'ulari singdirilgan beqiyos va noyob asari adabiyotimiz tarixida alohida sahifadir. U o'zbek she'riyatiga o'tgan asrning ikkinchi yarmida kirib keldi. Faynberg 15dan ortiq she'riy to'plamlar, 20dan ziyod multfilmlar va nasriy asarlar muallifi. „Etyud“(1967), „Soniya“(1969), „She'rlar“(1977), „Olis ko'prik-lar“, „Ijobat“(1982), „Qisqa to'lqin“(1983), „Yoyma to'r“(1984), „Erkin sonetlar“(1990) kabilar shular jumlasidandir. Aleksandr Faynberg tarjima sohasida ham qalam tebratgan va rus kitobxonlariga ko'plab o'zbek shoirlarining asarlarini tarjima qilgan. U o'zbek she'riyatining mashhur qalam sohiblari A. Navoiy g'azallari, E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon she'r va dostonlarini rus tiliga mahorat bilan o'girdi.

Aleksandr Faynbergning quyidagi she'rini ingliz tiliga tarjima qilishda, uning haqiqiy mazmuni va hissiyotlarini to'liq aks etirishga harakat qilish muhim. Bu she'rda shoir o'z vatani qanchalik qadrli ekanligi, yoshlikdagi barcha shirin xotiralari shu yerda o'tganligi haqida chiroyli misralar keltirgan. Ushbu she'r tarjimasida buning yaqqol namunasini ko'ramiz:

YAM-YASHIL MAKON

Aziz shahrim, yam-yashil makon,
Ilk tabassum, birinchi ko'z yosh.
Qora o'ra, xaroba ayvon
Uzra yashil novda yashnar yosh.

Tunuka tom ustida Gena,
Hushtak chalib kaplar o'ynardi.
Uchratarman qayerda yana
Ko'cha to'la og'aynilardi?

Yana nima betakror mutloq?
Yulduzlar. Oy, yulduzlar turg'un.
Uy buzilib ketdi-yu, biroq
Yonar bir juft derazam har tun.

Yonib turar fidoyi, hormay,

Meni kutar ko'zi to'rt bo'lib.

Dunyoning qay burchida yurmay,

Men o'laman shu yerga kelib.

A LUSH GREEN PLACE

My dear city, a lush green land,

My first bright smile, my first tear's strand.

A green sprout shines o'er the dark abyss,

Above the porch in ruin it lives.

On the tin roof, Gena would stay,

Whistling soft as pigeons played.

Where again will I ever see

A street so full of friends and glee?

What else is matchless, pure, and bright?

The stars. The moon and stars each night.

The house is gone, yet still there gleam

Two glowing windows in my dream.

They burn with love, they never tire,

Watching for me with longing desire.

No matter where the world I stray,

Here's the place I'll die one day.

Aleksandr Faynbergning ushbu she'ri ona shaharga bo'lgan cheksiz mehr va muhabbati bilan yo'g'rilgan. Shoir bolalik va yoshlik xotiralari bilan yashayotgan joyining tasvirini beradi. Ilk quvonch va ko'z yoshlar, eski hovlilar va bolalik do'stlari – bularning barchasi shoirning yuragida o'chmas iz qoldirgan. She'rning so'nggi bandida shoir vatan bilan bog'liq chuqur tuyg'ularni ifoda etadi. U qayerda bo'lmasin, oxir-oqibat tug'ilgan joyiga qaytishni va hayotining so'nggi lahzalarini shu yerda qarshilashni orzu qiladi. Bu misralar insonning ona yurtiga bo'lgan sadoqati va o'zgarmas muhabbatini yuksak badiiy ifoda bilan yetkazadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Researchedu.org<https://researchedu.org>ALEKSANDR FAYNBERG O'ZI KIM? | SCHOLAR
2. Faynberg, A. (2021). Qoralamaga qasida: She'rlar. Adabiyot.
3. Journal of new century innovations<https://newjournal.org>ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RLARI TARJIMALARIDA SHAKL VA ...
4. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasiga>
5. Masalieva, O. (2020). The role of Russian scientists in the source study of the bukhara khanate. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), 1540-1546.
6. Masalievna, M. O., & Muhitdinovich, J. Z. (2020). The Illumination of Bukhara Khans' Building Enterprise in the Some Historical Sources. Test Engineering and Management, 83(5-6), 1803-1811.
7. Масалиева, О. (2004). Амир Музаффарнинг тарихнавис ўғиллари. Мозийдан садо, (2), 22.
8. Masalieva, O. M. (2021, November). THE PRINCE OF BUKHARA SAYYID MUHAMMAD NASIR AND HIS SCIENTIFIC HERITAGE. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 182-185).
9. Тахирова, М. А. (2021). Педагогические условия организации семинарских, лабораторных и практических занятий в вузе. Academic research in educational sciences, 2(3), 535-543.
10. Takhirova, M. (2020). Improving speech skills of students based on projection of educational objectives in Russian language classes. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(7), 8063-8075.
11. Abdullaeva, S. A., Lutfillaev, M. H., & Takhirova, M. A. (2020). VII. THE PROBLEMS OF FORMATION OF A SINGLE INFORMATION-EDUCATIONAL ENVIRONMENT. INNOVATIONS AND MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM, 155.
12. Abdullaeva, S. A., Lutfillaev, M. H., & Takhirova, M. A. (2020). IMPLEMENTATION OF PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS SOFTWARE IN THE EDUCATIONAL PROCESS AS A FACTOR OF PERFECTION OF PREVENTIVE WORK TO REDUCE THE GROWTH OF CRIMINAL AGENCIES AMONG STUDENTS. In Сборники конференций НИЦ Социосфера (No. 8, pp. 155-161). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.